

IMPLIKATURA HODISASINING “HAMKORLIK PRINSIPLARI” ASOSIDA TAHLILI

Sharipova Fazilat Dillmurod qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada implikatura hodisasining “hamkorlik prinsiplari” asosida tahlili haqida soʻz boradi. Uning maʼno va mazmuni hamda tarjimadagai ahamiyati haqida muhokama qilinadi.

***Kalit soʻzlar:** implikatura, “hamkorlik prinsiplari”, muloqot, tarjima, ritorik tuzilishi, tautologik iboralar.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу феномена импликатуры на основе «принципов кооперации». Обсуждаются его значение и содержание, а также значение при переводе.

***Ключевые слова:** импликатура, «принципы сотрудничества», коммуникация, перевод, риторическая структура, тавтологические выражения.*

ABSTRACT

This article deals with the analysis of the phenomenon of implicature based on the "principles of cooperation". Its meaning and content and its importance in translation are discussed.

***Keywords:** implicature, "principles of cooperation", communication, translation, rhetorical structure, tautological expressions.*

KIRISH

Muloqot – odatda, lisoniy belgilar orqali soʻzlovchining qabul qiluvchiga yuborgan maʼlumoti sifatida ifodalanadi. Implikatura muloqot davomida boshqa narsa deyish orqali bilvosita qoʻshimcha maʼnoni nazarda tutishni anglatadi. Shu maʼnoda, ushbu bobda implikaturani oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilganda yuzaga keladigan muammolarga, shuningdek, “Oʻtkan kunlar” romanidagi xatlarning ingliz tilidagi tarjimalarida implikaturaning tarjima qilinishi, ularning tahlili, shuningdek, soʻzlashuv mazmunini oʻzida mujassam etgan va real hayotni oʻzida aks ettirgan turli muloqot qismlari xususida soʻz yuritamiz.

Soʻzlashuv implikaturasini tarjima qilishda esa tarjima matni (target text) ning makrostrukturasi va ritorik tuzilishi asliyat matni (source text)da qayta koʻrib chiqilishi, bunda oʻxshash implikatsiyaga ega soʻzlar va tuzilmalar topilishi talab qilinadi. Tarjimonlar matni boshqa tilga tarjima qilishda, odatda, ataylab yoki

bilmagan holda shunday yo‘l tutishadi va bu tadqiqotimizda olib boriladigan tahlillar natijasida tasdiqlanishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Graysning fikricha, muloqot davomida so‘zlovchi va tinglovchi “**hamkorlik prinsipi**” (**cooperative principle**) asosida birlashadilar. Va ushbu “hamkorlik prinsipi” Grays taqdim etgan muloqot implikaturasini tushunish va tahlil etish kaliti deb hisoblaydigan maksimalarni anglatadi:¹

Miqdor maksimalari (kerakli darajada axborotlilik)

- Yetarli darajada ma’lumot beruvchi bo‘lish; keragidan ortiq axborot yetkazmaslik;

Sifat maksimali (to‘g‘rilik, ishonchlilik)

- Noto‘g‘ri deb hisoblangan yoki yetarli dalillarga ega bo‘lmagan narsalarni aytmaslik;

Aloqa maksimali (muvofiqlik)

- Tegishli bo‘lishlik;
- Barqaror va izchil bo‘lish;

Maksimal uslub (aniqlik)

- Muxtasar bo‘lish
- Aniq ifoda etish.

H.Grays matnda hosil bo‘ladigan ko‘chirma yashirin ma’noni implikatura hodisasiga qaram deb hisoblaydi. Shuningdek, u muloqot davomida ushbu maksimalardan birortasiga amal qilinmaganda muloqot implikaturasi namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi.

MUHOKAMA

Xatlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida qator muammolar keltirib chiqaradigan, shuningdek, tilning madaniy tomonlarini aks ettiradigan implikaturaning namoyon bo‘lishi va uning tarjima tilida o‘zining yashirin ifodasini topganligini ko‘rib chiqamiz.

Asliyat matni: “*ikki yil bo‘ldi Marg‘ilon kelib yurishlaringizni men o‘zimcha yeshdim, lekin topib yeshdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz — dushmanlaringizdan o‘ch olish uchun bo‘lg‘anini ongladim.*”

I.Tuxtasinov, O. Mo‘minov, A.Hamidov tarjimasi: “*For these two years, so I guessed it: you came, you were worried and busy just to take revenge on your enemies, otherwise you would have seen me.*”

¹Grice P. Studies in the Way of Words. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. - P.26-27.

Mark Riz tarjimasida: “...Finally, after two years, I *found out* the reason you secretly traveled to Margilan...”

Ushbu jumla “hamkorlik prinsipi”dagi miqdor maksimasiga asosan amalga oshirilgan. Kumushning Otabekni u bilan ko‘rishmay ketganini “*yeshdim, lekin topib yeshdim*” tarzida anglashi gapda miqdor maksimasining “Keragidan ortiq ma’lumot bermaslik” tamoyiligi zid kelgan.

“*Yeshdim*” ifodasining takror qo‘llanilishi nutqning emotsional ta’sirchanligiga, uni oshirishga xizmat qiluvchi vosita – taftologiya hodisasini keltirib chiqargan. I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov tarjimasida *yeshdim* so‘zi *guessed* tarzida bir marta qo‘llangan va miqdor maksimasiga rioya qilingan. Mark Riz tarjimasida ham *found out* birikmasi ishtirokida miqdor maksimasiga amal qilingan va muloqot implikaturasi tarjimada saqlanmagan.

Graysning fikriga ko‘ra, taftologiya ishtirok etgan jumlar suhbatning ifodaviyligini (implikatsiyasini) so‘roq ostiga qo‘yadi, chunki ular nutqiy muloqotda zarur bo‘lgan darajada axborotni yetkazish majburiyatini, ya’ni Graysning miqdor maksimasiga zid keladi.² Shu nuqtai nazardan, taftologik so‘zlarni izohlashda uch xil yondashuv yuzaga kelgan, xususan:

- 1) radikal pragmatik yondashuv;
- 2) radikal semantik yondashuv ;
- 3) radikal bo‘lmagan yondashuv.³

Radikal pragmatik yondashuvda taftologik ibora talqinini muloqotning universal tamoyillari boshqaradi va bu iboralar “to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot bermaydi, ammo kontekstda mazmunli bo‘ladi”⁴. Bundan farqli o‘laroq, radikal semantik yondashuvda tautologik iboralarni talqin qilish qisman so‘zlashuv va tilga xosdir. Uchinchi, ya’ni radikal bo‘lmagan yondashuv tautologik iboralarni sharhlashda semantika va pragmatikani birlashtiradi. Ba’zan tautologik iboralar faqat vaziyat kontekstdan kelib chiqadigan oniy implikatsiyalarga va semantik tasvirlardan kelib chiqadigan asosiy implikatsiyalarga ega bo‘ladi. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda, Okamoto ta’kidlaydiki, “asosiy ma’nolarini hisobga olgan holda, tautologiyalar pragmatik jihatdan tushunib bo‘lmaydigan qo‘shimcha ma’nolarni berishi mumkin”⁵.

² Shehab, E. <http://scholar.najah.edu/sites/default/files/journalarticle/translatability-utterances-containing-implicatures%20%80%8E-arabic-english.pdf>

³ Gazdar G. Pragmatics: Implicature, presupposition, and logical form. - New York: Academic, 1979. – P.127.

⁴ Okamoto Sh. Nominal repetitive constructions in Japanese: The “tautology” controversy revisited, Journal of Pragmatics, vol. 20, 1993. - P.433-466.

⁵ Okamoto Sh. Nominal repetitive constructions in Japanese: The “tautology” controversy revisited, Journal of Pragmatics, vol. 20, 1993. - P. 433-466.

XULOSA

Tarjimon badiiy matni tarjima qilayotgan paytda yuz kelishi mumkin bo'lgan shunday muammo borki, u ham bo'lsa tarjimon qachon matndagi implisit ma'noga qo'shimcha axborot yuklashni bilishi kerak. Har qanday yozuvchi o'z tajribasi va o'zi ulg'aygan madaniyatidan kelib chiqib asarda implisit mazmunni yaratadi. Tarjimon implisit ifodani eksplisit tarzda aniq va tushunarli qilib o'girishga harakat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Shehab,E.
[http://scholar.najah.edu/sites/default/files/journalarticle/translatability-utterances-containing-implicatures %E2%80%8E-arabic-english.pdf](http://scholar.najah.edu/sites/default/files/journalarticle/translatability-utterances-containing-implicatures%E2%80%8E-arabic-english.pdf)
2. Grice H. P. Logic and conversation. - Cole, P., and J.L. Morgan: Academic Press, 1975. - P.41-58.
3. Grice P. Studies in the Way of Words. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. - P.26-27.
4. Ogden C. K. and Richards, I. A. The meaning of meaning, 8thedition. - New York, Harcourt, Brace & World, Inc, 1983.